



TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ro'ziyev Shuxrat Sharifboyevich
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola turizm infratuzilmasini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib turizm infratuzilmasini boshqarishda turistik korxonalar boshqarivi, turizm markazlari boshqaruvi, davlat boshqaruvi, hamkorlikdagi boshqaruv, hududiy boshqaruv, xalqaro korporatsiyalar boshqaruvi modellaridan foydalanish xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, turizm infratuzilma, turistik industriya, korporatsiya, boshqaruv, davlat-xususiy sheriklik, boshqaruvi modellari.

ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРОЙ

Рузиев Шухрат Шарифбоевич
Бухарский государственный университет

Аннотация. Данная статья посвящена особенностям управления туристической инфраструктурой, особенностям использования управления туристическими предприятиями, управления туристическими центрами, государственного управления, кооперативного управления, регионального управления, а также моделей управления международных корпораций в управлении туристической инфраструктурой.

Ключевые слова: туризм, туристская инфраструктура, туристическая индустрия, корпорация, менеджмент, государственно-частное партнерство, модели управления.

FEATURES OF TOURISM INFRASTRUCTURE MANAGEMENT

Ruziyev Shukhrat Sharifboyevich
Bukhara State University

Abstract. This article is devoted to the features of tourism infrastructure management, the features of using tourism enterprise management, tourism center management, public management, cooperative management, regional management, as well as management models of international corporations in tourism infrastructure management.

Keywords: tourism, tourism infrastructure, tourism industry, corporation, management, public-private partnership, management models.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotning muhim yo'nalishi sifatida turizm sohasining dunyo YaIMdagi ulushi muvofiq sohalar va tarmoqlardagi multiplikativ samarani e'tiborga olgan holda 6,0 foizini tashkil etmoqda. Turizm sohasi jahonda bandlikning 6-7 foizini ta'minlovchi yangi ish joylarini yaratishda asosiy rolga ega bo'lmoqda. Xalqaro turistik tashkilot (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasi jahondagi jami xizmatlar eksportining 30,0 foizidan ortig'ini ta'minlaydi¹⁸.

Shuningdek, xalqaro miqyosda tovarlar va xizmatlar hajmining 6,0 foizi, jami xizmatlar eksport hajmining 30,0 foizi, umumiy ish bilan bandlar sonining 9,5 foizi turizm tarmog'i hissasiga to'g'ri keladi va dunyoda yaratilgan har o'n birinchi yangi ish o'rni ushbu sohada yaratilmoqda¹⁹.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda kiruvchi turizm anchagina oshgan bo'lsada, ammo ushbu ko'rsatkich iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayotganligini ko'rsatmoqda. Iqtisodchi mutaxassislarining fikriga ko'ra, buning muhim sabablaridan biri turizmni barqaror rivojlanishi bo'yicha mavjud shart-sharoitlarning yetarli emasligidadir.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida turizm sohasini jadal rivojlantirish, uni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, mazkur yo'nalishda turistik hududning barqaror rivojlanishini kabilar yuzasidan keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln. nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln. nafarga yetkazish" (Farmon, 2022) vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda turistik hududning barqaror rivojlanishini boshqarish asosida korxonalar iqtisodiy va moliyaviy natijalarni oshirish uchun o'zlarining potensial imkoniyatlaridan to'liq foydalanish hamda mazkur soha iqtisodiy salohiyatidan foydalanishning samaradorligini oshirishga erishish maqsadga muvofiq.

Darhaqiqat, turizm sohasida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib, uning samarali rivojlanishi uchun tashkiliy-iqtisodiy bazani takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Turizm industriyasida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishning asosi sifatida avvalambor yuqori darajada rivojlangan tashkiliy tuzilmalarning mavjudligi, uning turizm sohasida amalga oshadigan iqtisodiy munosabatlarni barqarorligini ta'minlashga ta'siri hamda takomillashgan me'yoriy-huquqiy tizimni realizatsiya qilinishida keng imkoniyatlarni berishi asosida belgilanadi. Shuning ko'ra, turizm bozorining samarali rivojlanishi uchun Turistik hududning barqaror rivojlanishini boshqarish tizimini takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar sharhi.

Turistik hududning barqaror rivojlanishini boshqarish, xususan, turizm infratuzilmasini boshqarish bo'yicha xorijiy va respublikamizning ko'plab olimlari ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Masalan, M.B.Birjakovning yondashuviga ko'ra, «turizm infratuzilmasi – bu turistik resurslarga turistlarni me'yor darajasida erishishlarini ta'minlovchi va ularni turizm maqsadida foydalanishdan iborat bo'lgan, turizm industriyasi korxonalarini hayotiy faoliyatini va shaxsan turistlarni ta'minlovchi turizm industriyasi korxonalarining o'zaro bog'liq yo'llar, telekommunikatsiya aloqalari hamda muhandislik va kommunikatsion tarmoqlar majmuasi hisoblanadi» (Бекларян, Пшенников, 2001).

Morozovning (2005) fikricha, «turizm infratuzilmasi – bu turistik mahsulotning komponentlarini takror ishlab chiqarish sharoitlarini yaratuvchi va makro, mezo va mikroiqtisodiyot darajasida iqtisodiyot tarmoqlari sifatida turizm shakllanishini ta'minlovchi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma elementlarini texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro munosabatlari majmuini o'zidan namoyon etuvchi tizimdir».

¹⁸ UNWTO Tourism Highlights. Edition 2017. - Madrid, WTO Publications Department. - 2018.

¹⁹ Travel & Tourism Economic Impact 2016 World [Электрон манба]: <http://www.wttc.org>

Iqtisodchi olim D.V.Ismaev turistik infratuzilmani turistik xizmatlar ishlab chiqarish va turindustriya korxonalarining normal faoliyatini ta'minlovchi xo'jalik tarmoqlari kompleksi sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, infratuzilma tarmoqlararo tavsifga ega va davlat, hududlar va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasida integratsion funksiyani bajaradi, ya'ni infratuzilma bevosita moddiy boylik yaratmaydi. U ta'minlovchi funksiyani bajaradi (Бекларян, Пшенников, 2001).

Mahalliy olimlardan Mamatqulov (2011) ta'kidlashicha, "Turizm infratuzilmasi – bu turistik mahsulotlar ishlab chiqarish umumiy shartlarining birlashgan mohiyatidir. «Ishlab chiqarish umumiy shartlari» tushunchasi mohiyatini ochishda mutaxassislarning fikrlari va qarashlari turlicha bo'lib, ular bir-biridan farqlanadi. Ayrimlari infratuzilma bu asosiy texnologik jarayonlarni ta'minlovchi obyektlar yoki faoliyat turlari deb tushunchalar, boshqalari esa bu butun texnologik jarayondir, uchinchi birlari, turistik mahsulotlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan texnologik jarayonlar va unga qo'shimcha boshqaruv ta'siri" deb tushunadilar.

Turizm sohasiga oid adabiyotlarda turistik industriya infratuzilmasi turizm infratuzilmasiga nisbatan tor tushuncha hisoblanib, «turizm industriyasi» kategoriyasini yoritib berishda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, mazkur soha rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan olimlardan Tuxliyev, Hayitboev, Safarov, Tursunovalar (2014) tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: «Turizm industriyasi – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, ko'ngilochar obyektlari va vositalari, davolash, sog'lomlashtirish, sportga doir, diniy marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek turizm infratuzilma tashkilotlari majmuidan iborat bo'ladi».

Alimovaning (2017) fikricha, «turizm industriyasi – turistik safar davomida turistlar iste'molini imkon darajada to'liqroq ta'minlashga kerakli, shuningdek aynan shu jarayonni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan xizmatlar va tovarlar majmuini ishlab chiqaruvchi va realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning o'zaro bog'langan, murakkab majmuidir».

Darhaqiqat, turizm infratuzilmasi turizm sohasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, turistik salohiyatni oshirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida infratuzilma obyektlarini kengaytirish va transformatsiyalashishiga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, ushbu jihatlarni bugungi kun imkoniyatlari asosida nazariy-metodologik jihatdan o'rganish va uning turistik hududning barqaror rivojlanishini boshqarishdagi ahamiyatini belgilash hamda ayni shu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, sohaga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, Prezidentimizning farmon va qarorlari, qonun hamda tadqiqot mavzusiga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turizm infratuzilmasini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari turizm sohasining tarmoq, transport, mehmonxona va turar joylarini o'z ichiga olgan kompleks xizmat tizimini ifodalaydi. Bu borada olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi asosiy xususiyatlarni ko'rib chiqamiz:

Birinchiidan, turizm infratuzilmasini boshqarishda muhim bo'lgan tarmoq tizimi, avtomobil yo'llari, temir yo'llar, va aviatransport tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Turistlar uchun mashrutlar, ko'ngilochar joylar, va ob'yektlar bilan bog'langan kompleks tarmoq tizimi turistlarni qiziqtirish uchun tuzilganligi bilan farqlanadi.

Ikkinchiidan, turizmning muvaffaqiyati uchun mos transport tarmoqi muhimdir. Xalqaro aeroportlar, temir yo'llar, avtobus va avtotransport xizmatlari turistlarni shaharlar, turar joylar, va boshqa turistik ob'yektlarga yetkazib berishda o'z vazifasini bajaradi.

Uchunchidan, mehmonxona va turar joylar turizm infratuzilmasi tarkibida katta joy egallaydi. Yaxshi ta'minlangan va qulay mehmonxonalarning mavjudligi, sayohat uchun qulayliklar va turar joylar (attraksionlar, muzeylar, restoranlar) turistlarni jalb qilishda katta ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, axborot texnologiyalari, onlayn savdo tizimlari, va boshqa axborotlar tizimlari turizmni boshqarishda juda muhimdir. Turistlar uchun onlayn xizmatlar, rezervatsiyalar, va boshqa axborotlarni taqdim etish bu sohada innovatsion yondashuvlar keltiradi.

Beshinchidan, turizm sohasini boshqarish uchun xususiy turizm boshqarmasi (tourism board) yoki agentliklar bo'lishi mumkin. Bu tashkilotlar turistik manzaralar, texnologik vositalar, va turizm strategiyalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Oldinchidan, aqlli shahar texnologiyalari va IoT (Internet of Things)ni qo'llab-quvvatlash turizm sohasini rivojlantirish uchun muhimdir. Shaharlar va turistik zonalar o'rtasidagi bog'liqlik, transport, va turistlarga axborot xizmatlarini takomillashtirish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

Yettinchidan, turizm sanoati, madaniy-xududiy sanoat va muzeylar, milliy restoranlar va kafelar orqali turistlarga o'zining asosiy xususiyatlarini namoyish etishda muhimdir.

Sakkizinchidan, Turizm infratuzilmasini boshqarishda davlat, mahalliy hokimiyat, tadbirkorlik tashkilotlari va boshqa subjektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhimdir. Turizm sohasidagi barcha subjektlar o'zaro fikr almashish va ko'rsatuvlarni rivojlantirish uchun bir-biriga qo'llab-quvvat berishi kerak.

Turizm infratuzilmasi institutlar tizimi sifatida turistik faoliyatga xizmat ko'rsatuvchi turli xil tashkiliy tuzilmalar va mexanizmlar majmuidan iborat bo'lib, u mazkur bozorning barqaror rivojlanishi uchun huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan boshqarishda qo'lay imkoniyatlar va shart-sharoitlarni namoyon qilgan holda, turizm infratuzilmasini boshqarishda innovatsion yondashuvlar, ta'lim va kadrlarni rivojlantirish, turizm iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, va xususiy yo'nalishlarga fokuslanish katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, turizm infratuzilmasini boshqarishda muvaffaqiyatli bo'lish uchun bir nechta modellar mavjud. Har bir mamlakat yoki hudud o'zining turistik salohiyati, resurslari, va maqsadlari asosida turizm infratuzilmasini boshqarishda kerak bo'lgan usullar va modellarni rivojlantiradi. Fikrimizcha, turizm infratuzilmasini boshqarishda quyidagi modellardan foydalanish imkoniyati mavjud (1-rasm).

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, turizm infratuzilmasi va turizm industriyasi infratuzilmalari shakllanishi o'zaro nisbatda joylashgan bo'lib, turizm infratuzilmasini boshqarishda qo'llaniladigan modellarni quyidagicha izohlash mumkin:

Turistik korxonalar boshqaruvi – turistik korxonalar, turistik obyektlar, mehmonxonalarni o'zlarining korxonalar yoki tadbirkorlar tomonidan boshqarilishi. Bu model turizm sohasidagi investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlarni takomillashtirish va daromad olishni maqsad qiladi.

Turizm markazlari boshqaruvi – turizm markazlari, turistik obyektlar va turizm xizmatlarini boshqarishda markaz bo'lib faoliyat ko'rsatishda mutaxassislik qiladigan markazlar. Bu markazlar boshqa boshqaruv organlari, korxonalar, va tadbirkorlar bilan hamkorlik qila olishadi.

Davlat boshqaruvi – davlatning turizm sohasida yutuqlari, madaniyatlar va turizm infratuzilmasini boshqarishi. Bu model taxminan milliy va regional turizmni rivojlantirishda qo'llaniladi.

Hamkorlikdagi boshqaruv – davlat va xususiy tadbirkorlik tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik. Bu model turizm loyihalarini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik boshqaruv mexanizmi asosida amalga oshiriladi. Bu usul o'zaro qo'llab-quvvatlash, kapitalni jalb qilish, va risklarni bo'lishni ta'minlaydi.



1-rasm. Turizm infratuzilmasini boshqarishda modellari²⁰

Hududiy boshqaruv – bu modelda, turizm infratuzilmasini o‘z ichiga olgan hududiy bo‘linmalar boshqaradi. Turizmni hududiy ko‘nikmalar, g‘oyalar, va madaniyatga asoslab rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu usul turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish, va xizmatlarni ko‘rsatishga tadbir qilishni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro korporatsiyalar boshqaruvi – xalqaro kompaniyalar yoki korporatsiyalar tomonidan boshqarilgan model. Bu usulda xalqaro investitsiyalar va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun global tajribani olib kelish maqsad qilinadi.

Xulosa va takliflar.

Turizm infrastrukturasini boshqarish, turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta‘minlash uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu, turistik ob‘ektlar, transport tarmoqlari, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa turizmga oid tashkilotlarni boshqarish bilan bog‘liq hisoblanadi. Umumiy holda turizm infratuzilmasining kompleks rivojlanishi va takomillashishining asosiy yo‘nalishlarini bir qancha yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

- korxonalarining o‘tkazish qobiliyati va ishlab chiqarish quvvatini oshirish;
- turistik infratuzilma tarkibiy qism elementlarini uzluksiz takomillashtirish;
- turistik xizmatlar ishlab chiqarishini tabaqalashtirish;
- turizm infratuzilmasi elementlarini mutanosib rivojlanishi;
- turistik infratuzilma kompleksini boshqarishni takomillashtirish;
- xizmat ko‘rsatish sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- turizm infratuzilmasi ob‘ektlarida investitsiyalashning zamonaviy shakllaridan foydalanish va qulay investitsion iqlimni yaratish.

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizm infrastrukturasi boshqarishda muvaffaqiyatli bo'lish uchun yuqorida keltirilgan modellardan foydalanishda bir-biriga mos kelishini ta'minlash, turizm sohasidagi yangiliklarga e'tibor qaratgan holda, turistlarni qiziqtirish uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar / Literature / Reference:

Алимова М.Т. (2017) *Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) // И.ф.д. дисс. - Самарқанд: СамИСИ, 25-26-б.*

Бекларян Л.А., Пшенников А.С. (2001) *О некоторых аспектах методики исследования региональных проблем // Журнал Аудит и финансовый анализ. - №4.*

Бекларян Л.А., Пшенников А.С. (2001) *О некоторых аспектах методики исследования региональных проблем // Журнал Аудит и финансовый анализ. - №4.*

Маматқулов Х.М. (2011) *Туризм инфратузилмаси. Ўқув қўлланма. - Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 4-5-бетлар.*

Морозов М.А. (2005) *Инфраструктурное обеспечение предпринимательской деятельности в туризме: монография. - М.: РосНОУ.*

Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. (2014) *Туризм асослари. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. - Т.: «Fan va texnologiya», 151-б.*

Фармон (2022) *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони. <https://lex.uz/pdfs/5841063>.*